

MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINING HISOB SUBYEKTLARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI

Annayev Abdurasul Abdurashidovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit kafedrası assistenti

Annotatsiya – Mazkur maqolada madaniyat sohasi muassasalarining hisob subyekti sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida madaniyat muassasalarining moliyalashtirish manbalari, hisob obyektlari, buxgalteriya hisobi tizimini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, madaniyat muassasalarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobi, madaniy boyliklar va meros obyektlarini hisobga olishning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida hisob tizimini raqamlashtirish, ichki nazoratni kuchaytirish va xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Madaniyat muassasalari, buxgalteriya hisobi, hisob subyekti, byudjet mablag‘lari, moliyaviy hisobot, madaniy boyliklar, ichki nazorat, davlat sektori hisobi, byudjetdan tashqari mablag‘lar, IPSAS.

KIRISH

Mamlakatimizda madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholining ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasini yuksaltirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va targ‘ib qilish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda madaniyat muassasalari muhim o‘rin tutadi. Shu sababli teatrlar, muzeylar, kutubxonalar, madaniyat markazlari, san‘at maktablari va boshqa madaniy muassasalar faoliyatini samarali tashkil etish, ularning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish hamda buxgalteriya hisobini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida madaniyat sohasi muassasalari nafaqat ijtimoiy va ma‘naviy vazifalarni bajaruvchi tashkilotlar, balki moliyaviy resurslardan foydalanuvchi, byudjet mablag‘larini boshqaruvchi va ayrim hollarda pullik xizmatlar ko‘rsatish orqali daromad oluvchi hisob subyektlari sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Ularning faoliyatida davlat byudjeti mablag‘lari, grantlar, homiylik mablag‘lari, maqsadli tushumlar hamda xo‘jalik faoliyatidan olingan daromadlar muhim moliyaviy manbalar hisoblanadi. Mazkur mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishini ta‘minlash esa puxta tashkil etilgan buxgalteriya hisobi tizimini talab etadi.

Madaniyat sohasi muassasalari hisob subyekti sifatida boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlardan bir qator o‘ziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Jumladan, ularning asosiy maqsadi foyda olish emas, balki madaniy xizmatlar ko‘rsatish va jamiyatning ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir. Shu bois ushbu muassasalarda xarajatlar smetasi asosida moliyalashtirish, byudjet va byudjetdan

tashqari mablagʻlarni alohida hisobga olish, madaniy boyliklar va muzey eksponatlari kabi noyob aktivlarni hisobga olish, maqsadli moliyalashtirish manbalari ustidan nazoratni amalga oshirish kabi masalalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, davlat sektorida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritishga boʻlgan talablarning ortib borishi madaniyat muassasalarida ham hisob tizimini modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa mazkur muassasalarning hisob subyekti sifatidagi xususiyatlarini chuqur oʻrganish, mavjud amaliyotni tahlil qilish va uni takomillashtirish boʻyicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shu munosabat bilan madaniyat sohasi muassasalarining hisob subyekti sifatidagi xususiyatlarini oʻrganish, ularning moliyaviy-xoʻjalik faoliyatini hisobga olishning tashkiliy-uslubiy jihatlarini tahlil qilish hamda buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish yoʻnalishlarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Mazkur tadqiqot madaniyat muassasalarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, hisob va nazorat tizimini takomillashtirish hamda boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Madaniyat sohasi muassasalarining hisob subyekti sifatidagi xususiyatlarini tadqiq etishda davlat sektori buxgalteriya hisobi, notijorat tashkilotlar hisobi, byudjet tashkilotlarida moliyaviy boshqaruv va madaniyat muassasalari iqtisodiyoti boʻyicha olib borilgan ilmiy izlanishlar muhim nazariy va uslubiy asos boʻlib xizmat qiladi. Ushbu yoʻnalishda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan buxgalteriya hisobini tashkil etish, moliyaviy hisobotlarni shakllantirish, davlat mablagʻlaridan foydalanish samaradorligini baholash hamda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish masalalari keng oʻrganilgan.

Buxgalteriya hisobi nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan olimlardan biri A.D. Sheremet hisoblanadi. Uning ilmiy ishlarida buxgalteriya hisobi xoʻjalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini boshqarish va nazorat qilishning muhim vositasi sifatida talqin etilgan. Olim hisob tizimi orqali tashkilotning moliyaviy holati, mablagʻlar harakati va aktivlar tarkibi toʻgʻrisida ishonchli maʼlumotlar shakllantirilishini taʼkidlaydi.

V.F. Paliy oʻz tadqiqotlarida buxgalteriya hisobining axborot tizimi sifatidagi ahamiyatiga alohida eʼtibor qaratib, moliyaviy resurslardan samarali foydalanishda hisob maʼlumotlarining boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi rolini asoslab bergan. Uning fikricha, davlat sektoridagi tashkilotlarda hisobning shaffofligi va ishonchligi byudjet mablagʻlaridan oqilona foydalanishni taʼminlaydi.

Davlat sektori hisobi boʻyicha tadqiqotlar olib borgan I.A. Blanka va M.X. Karmitskiylar davlat muassasalarida moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, xarajatlarni rejalashtirish hamda byudjet mablagʻlari harakati ustidan nazoratni kuchaytirish masalalarini oʻrganganlar. Ularning ilmiy qarashlarida davlat muassasalarining asosiy maqsadi foyda olish emas, balki ijtimoiy xizmatlarni samarali koʻrsatish ekanligi qayd etilgan.

Xalqaro miqyosda davlat sektori buxgalteriya hisobi masalalarini oʻrgangan

olimlardan R. Chan, C. Humphrey va T. Brusca tadqiqotlarida xalqaro davlat sektori buxgalteriya hisobi standartlari (IPSAS)ni joriy etishning afzalliklari yoritilgan. Ular davlat tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlash uchun hisob tizimini xalqaro standartlar asosida tashkil etish zarurligini asoslab berganlar.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan B.A. Xasanov, A.S. Suyunov, Q.B. Urazov, D.A. Karimov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, davlat moliyasi hisobi, moliyaviy hisobotlarni tuzish va nazorat tizimini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida byudjet tashkilotlarining faoliyat xususiyatlari, moliyalashtirish manbalari va hisob siyosatini shakllantirishga oid nazariy hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Madaniyat sohasi iqtisodiyoti bo'yicha tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlar D. Throsby, R. Towse va B. Frey madaniy tashkilotlarning iqtisodiy tabiati, ularning moliyalashtirish manbalari hamda madaniy aktivlarni boshqarish masalalarini tadqiq qilganlar. Ularning ishlarida madaniyat muassasalari nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega tashkilotlar, balki iqtisodiy resurslarni boshqaruvchi subyektlar sifatida ham qaraladi. Ayniqsa, muzeylar, teatrlar va kutubxonalarda nomoddiy aktivlar, tarixiy-madaniy boyliklar va kolleksiyalarni hisobga olishning o'ziga xos jihatlari keng yoritilgan.

Shuningdek, ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, madaniyat sohasi muassasalarining hisob subyekti sifatidagi xususiyatlarini o'rganishda ularning moliyalashtirish tizimi, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi, asosiy vositalar va madaniy meros obyektlarini hisobga olish, shuningdek, ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida madaniyat muassasalarining o'ziga xos aktivlari va moliyalashtirish manbalarini hisobga olish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yetarli darajada yoritilmagan.

O'rganilgan ilmiy adabiyotlar va amaliy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, madaniyat sohasi muassasalarining hisob subyekti sifatidagi xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini hisobga olish usullarini takomillashtirish hamda xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli mazkur tadqiqotda madaniyat muassasalarining hisob tizimini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari kompleks ravishda o'rganiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda madaniyat sohasi muassasalarining hisob subyekti sifatidagi xususiyatlarini o'rganish, ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tashkil etish va buxgalteriya hisobi tizimining o'ziga xos jihatlari aniqlashga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy nazariya, buxgalteriya hisobi nazariyasi, davlat sektori hisobi tamoyillari hamda madaniyat muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, ilmiy bilishning umumiy usullari – analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan

foydalanildi. Analiz usuli orqali madaniyat muassasalarining moliyalashtirish manbalari, aktivlari, majburiyatlari va hisob obyektlari alohida tarkibiy qismlar bo'yicha o'rganildi. Sintez usuli yordamida esa ushbu elementlar yagona hisob tizimi doirasida umumlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi ochib berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Madaniyat sohasi muassasalari davlatning ijtimoiy-madaniy siyosatini amalga oshiruvchi muhim institutlar hisoblanadi. Ularning faoliyati aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish, milliy merosni saqlash va targ'ib qilish, san'at va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur muassasalar foyda olishni asosiy maqsad qilib qo'yaganligi sababli ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyati va buxgalteriya hisobi tizimi tijorat korxonalaridan sezilarli darajada farq qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, madaniyat muassasalari faoliyatining asosiy moliyaviy manbai davlat byudjeti mablag'lari hisoblanadi. Shu bilan birga, ular tomonidan pullik xizmatlar ko'rsatish, homiylik mablag'lari, grantlar, xayriya mablag'lari va boshqa byudjetdan tashqari tushumlar ham shakllantiriladi. Bu esa hisob tizimida mablag'lar manbalari bo'yicha alohida nazorat va hisob yuritishni talab etadi.

1-jadval

Madaniyat muassasalarining hisob subyektı sifatidagi asosiy xususiyatlari

| № | Xususiyatlar | Mazmuni | Hisobga ta'siri |
|---|--|--|---|
| 1 | Notijorat faoliyat | Foyda olish asosiy maqsad emas | Xarajatlar smetasi asosida hisob yuritiladi |
| 2 | Byudjet mablag'lari bilan moliyalashtirish | Davlat mablag'lari asosiy manba hisoblanadi | Maqsadli foydalanish nazorati kuchayadi |
| 3 | Byudjetdan tashqari mablag'lar mavjudligi | Pullik xizmatlar, grantlar, homiylik mablag'lari | Mablag'lar alohida hisobga olinadi |
| 4 | Madaniy boyliklarning mavjudligi | Muzey eksponatlari, kutubxona fondlari | Maxsus hisob obyektlari shakllanadi |
| 5 | Davlat mulkidan foydalanish | Binolar va inshootlar davlat tasarrufida | Asosiy vositalar hisobi muhim ahamiyat kasb etadi |
| 6 | Ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlar | Aholiga madaniy xizmat ko'rsatish | Moliyaviy natijadan ko'ra samaradorlik muhim |

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, madaniyat muassasalarining hisob tizimi moliyaviy natijani aniqlashdan ko'ra mablag'lardan maqsadli foydalanish va ularning saqlanishi ustidan nazoratni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Tahlillar natijasida madaniyat muassasalari aktivlarining tarkibi ham boshqa tashkilotlardan sezilarli darajada farq qilishi aniqlandi. Xususan, muzeylarda tarixiy eksponatlar, kutubxonalarda kitob fondlari, teatr va konsert tashkilotlarida sahna jihozlari hamda madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ularni baholash va hisobga olish jarayonlari maxsus yondashuvni talab qiladi.

2-jadval

Madaniyat muassasalarida uchraydigan asosiy hisob obyektlari

| Hisob obyektlari | Mazmuni |
|------------------|---|
| Asosiy vositalar | Binolar, inshootlar, uskunalari, transport vositalari |

| | |
|------------------------------|--|
| Kutubxona fondlari | Kitoblar, elektron resurslar, qo'lyozmalar |
| Muzey eksponatlari | Tarixiy va madaniy boyliklar |
| Nomoddiy aktivlar | Mualliflik huquqlari, dasturiy ta'minot |
| Pul mablag'lari | Byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar |
| Debitor va kreditor qarzlari | Hisob-kitob operatsiyalari |
| Maqsadli tushumlar | Grantlar, homiylik va xayriya mablag'lari |

Tadqiqot davomida madaniyat muassasalarining moliyalashtirish manbalari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda byudjetdan tashqari mablag'lar ulushi ortib bormoqda. Bu esa muassasalarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish bilan birga hisob va nazorat tizimiga qo'shimcha talablarni yuzaga keltirmoqda.

Tahlil natijalari madaniyat muassasalarida buxgalteriya hisobini yuritishda bir qator muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Jumladan, madaniy boyliklarni baholashning yagona mexanizmi mavjud emasligi, ayrim muassasalarda hisob jarayonlarining to'liq raqamlashtirilmaganligi, ichki nazorat tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi va xalqaro standartlar talablari bilan milliy amaliyot o'rtasida tafovutlar mavjudligi kuzatilmoqda.

3-jadval

Madaniyat muassasalarida hisob tizimining asosiy muammolari va ularning oqibatlari

| Muammo | Oqibati |
|---|---|
| Hisob jarayonlarining qisman avtomatlashtirilganligi | Ma'lumotlarni qayta ishlash sekinlashadi |
| Madaniy boyliklarni baholashdagi murakkabliklar | Aktivlar qiymatini aniq aks ettirish qiyinlashadi |
| Ichki nazorat tizimining sustligi | Mablag'lardan foydalanish samaradorligi pasayadi |
| Hisobotlarning ayrim hollarda kechikishi | Boshqaruv qarorlarining sifati pasayadi |
| Raqamli texnologiyalar yetarli darajada joriy etilmaganligi | Hisob xarajatlari ortadi |

O'tkazilgan tahlillar asosida madaniyat sohasi muassasalarining hisob subyekti sifatidagi eng muhim xususiyati ularning ijtimoiy yo'naltirilganligi, davlat tomonidan moliyalashtirilishi hamda o'ziga xos madaniy aktivlarga egaligi ekanligi aniqlandi. Shu sababli ushbu muassasalarda buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish, elektron hisob platformalarini keng joriy etish, ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va xalqaro davlat sektori hisobi standartlari talablarini bosqichma-bosqich tatbiq etish zarur.

Tadqiqot natijalari madaniyat muassasalarida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, hisob ma'lumotlarining ishonchligini ta'minlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilash imkonini beruvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari madaniyat sohasi muassasalari mamlakatning ma'naviy-

ma'rifiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim ijtimoiy institutlar bo'lishi bilan birga, buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan o'ziga xos hisob subyektlari hisoblanishini ko'rsatdi. Ularning faoliyati asosan davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi, notijorat xarakterga ega bo'lishi va madaniy meros obyektlari kabi noyob aktivlarga egaligi bilan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlardan farqlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, madaniyat muassasalarida hisob tizimining asosiy vazifasi foydani aniqlash emas, balki moliyaviy resurslarning maqsadli sarflanishi, davlat mulkining saqlanishi hamda moliyaviy intizomni ta'minlashdan iboratdir. Shu sababli ushbu muassasalarda byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning alohida hisobini yuritish, xarajatlar smetasi ijrosini nazorat qilish hamda moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida madaniyat muassasalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish jarayonida ayrim muammolar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, madaniy boyliklar va muzey eksponatlarini baholash mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi, hisob jarayonlarining to'liq raqamlashtirilmaganligi, ichki nazorat tizimining ayrim hollarda sustligi hamda xalqaro davlat sektori hisobi standartlarini qo'llash darajasining cheklanganligi kuzatildi.

Shuningdek, madaniyat muassasalarida grantlar, homiylik mablag'lari va pullik xizmatlardan tushadigan daromadlar ulushining ortib borayotgani hisob tizimiga qo'shimcha talablarni qo'ymoqda. Bu esa mablag'larning harakati va ulardan foydalanish samaradorligini nazorat qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, madaniyat sohasi muassasalarining hisob subyekti sifatidagi xususiyatlarini chuqur o'rganish ularning moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, davlat mablag'laridan oqilona foydalanishni ta'minlash va zamonaviy hisob tizimini shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Madaniyat muassasalarida buxgalteriya hisobini to'liq raqamlashtirish orqali hisob ma'lumotlarini shakllantirish, qayta ishlash va hisobotlarni tayyorlash jarayonlarini avtomatlashtirish lozim.

Muzey eksponatlari, kutubxona fondlari va madaniy meros obyektlarini hisobga olish bo'yicha yagona uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqish zarur. Bu aktivlarning haqiqiy qiymatini aniqlash va moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirish imkonini beradi.

Byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini integratsiyalashgan elektron platformalar asosida yuritish mablag'lar harakati ustidan nazoratni kuchaytiradi hamda shaffoflikni ta'minlaydi.

Ichki audit va ichki nazorat tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash va mablag'lardan samarasiz foydalanish holatlarining oldini olish maqsadga muvofiq.

Davlat sektori buxgalteriya hisobi milliy standartlarini xalqaro standartlar (IPSAS) talablari bilan uyg'unlashtirish madaniyat muassasalarida moliyaviy hisobotlarning sifatini va xalqaro taqqoslanuvchanligini oshiradi.

Madaniyat muassasalari buxgalterlari va moliyaviy xodimlarining malakasini muntazam oshirib borish uchun maxsus o‘quv dasturlari va malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

Grantlar, homiylik mablag‘lari va pullik xizmatlardan tushadigan daromadlarni boshqarishning alohida hisob mexanizmlarini joriy etish orqali mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

Elektron hujjat aylanishi va bulutli hisob tizimlarini joriy etish hisob xarajatlarini kamaytirish, ma’lumotlar xavfsizligini oshirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Madaniyat muassasalari faoliyati samaradorligini baholovchi moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish orqali davlat mablag‘laridan foydalanish natijadorligini baholash imkoniyatlari kengayadi.

Madaniyat sohasi muassasalarining moliyaviy hisobotlarini jamoatchilik uchun ochiq e’lon qilish amaliyotini kengaytirish hisob tizimining shaffofligini oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi madaniyat sohasi muassasalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda madaniy xizmatlar sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nurullayev Abdulaziz. San’at menejmenti va marketing: o‘quv qo‘llanma. – T.: “Donishmand ziyosi” nashriyoti, 2023. – 200 b.
2. Tajimuratova Sh. O‘zbekistonda madaniyat va san’at boshqaruvining rivojlanishi // *Modern Science and Research*. 2025. Vol. 4, Issue 7. – B. 73–77. DOI: <https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.science-research.129988>. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/130504>
3. Ahmedov F. Madaniyat va san’at muassasalarida reja tuzish va hisobot yozish prinsiplari // *Inter Education & Global Study*. 2025. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/madaniyat-va-san-at-muassasalarida-reja-tuzish-va-hisobot-yozish-prinsiplari>
4. Стражев В. И. Теория анализа хозяйственной деятельности: учебное пособие. – 2-е изд., испр. – Минск: Вышэйшая школа, 2014. – 143 с. URL: http://edoc.bseu.by:8080/bitstream/edoc/10095/2/Strazhev_V_I__ocr.pdf
5. Петров А. М., Лымарь М. П. Влияние философско-культурных факторов на развитие бухгалтерского учета в Китае // *Учет. Анализ. Аудит*. 2015. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-filosofsko-kulturnyh-faktorov-na-razvitie-buhgalterskogo-ucheta-v-kitae>
6. Byrnes W. J. *Management and the Arts*. 6th ed. – New York: Routledge, 2022. – 576 p. ISBN: 9780367258900.
7. Colbert F., Ravanis P., Brunet J. *Marketing Culture and the Arts*. 5th ed. – Montréal: HEC Montréal, 2019. – 358 p. ISBN: 9782980860287.
8. Wróblewski Ł. *Culture Management: Strategy and Marketing Aspects*. – Berlin: Logos Verlag, 2017. URL: <https://library.oapen.org/bitstream/id/106553dd-f014-4caf->

8128-08cfdcb50b59/external_content.pdf

9. Jung Y., Vakharia N., Vecco M. The Oxford Handbook of Arts and Cultural Management. – Oxford: Oxford University Press, 2022. ISBN: 9780197621615.

10. Kaiser M. M. The Art of the Turnaround: Creating and Maintaining Healthy Arts Organizations. – Hanover: Brandeis University Press, 2008. – 204 p. ISBN: 9781584657354.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/584>

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-400-son “Madaniyat va san’at, axborot-kutubxona va muzeylar sohalari xodimlarini moddiy qo‘llab-quvvatlash hamda ularning faoliyat samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. URL: <https://lex.uz/docs/-7235571>